BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILAR IJODIY QOBILIYATLARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Misirova Nodira Tovbayevna, Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsent v.b, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nodira.mi.8874@gmail.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, fanga oid muammolarni yechish usullarini o‘rgatish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy masalalarni evrestik yo‘llar bilan ishlash, faoliyatining tanish usullaridan yangi vaziyatlarda kompetensiyalarini qo‘llay olish, emotsional-integrativ kasbiy tayyorgarlik darajalari, samarali fikrlash, tasavvur, kognitiv motivatsiya, intellektual his-tuyg‘ular uzviyligini diagnostik aniqlash asosida takomillashtirishga qaratilgan.

Muallif tomonidan maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ijodiy qobiliyati pedagogik faoliyati davomida davriy va uzluksiz didaktik tayyorgarligini ta’lim mazmunining shakli hamda uzluksizligiga bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar aytib o‘tilgan.

Maqolada hozirgi zamon adabiyotlarida ijod, ijtimoiy yoki ijtimoiy-tarixiy ulkan ahamiyatga ega faoliyat turi sifatida e’tirof etilgan. Bu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlagan holda odatda tadqiqotlarda ijod mahsulining ob’ektiv va sub’ektiv tomonlarini alohida ajratib ko‘rsatilgan, sub’ektiv holatda esa ijodning ijtimoiy emas, balki faqat shaxsiy ahamiyatiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy qobiliyatlar, kompetensiya, emotsional-integrativ kasbiy tayyorgarlik darajalari, kognitiv motivatsiya, davriy va uzluksiz didaktik tayyorgarlik, kreativ va tizimli, intellektual qobiliyat, muammoli yondashuvlar, individual-psixologik, insonning individual salohiyati, xalqaro standart, konkret funksional tizim;

ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье будущие учителя начальной школы будут развивать творческие способности, обучать методам решения научно-технических задач, развивать навыки мышления, работать с творческими задачами эвристическими способами, а также уметь применять свои компетенции в новых ситуациях из знакомых методов их деятельность, направленная на повышение уровня эмоционально-интегративной

профессиональной подготовки, эффективного мышления, воображения, познавательной мотивации, связности интеллектуальных чувств на основе диагностического определения.

В статье автором упомянуты предложения и рекомендации по совершенствованию творческих способностей будущих учителей начальной школы в ходе их педагогической деятельности на основе постепенного гармонизации периодического и непрерывного дидактического обучения с формой и преемственностью содержания образования.

В статье творчество признается видом деятельности, имеющим большое общественное или общественно-историческое значение в современной литературе. В подтверждение этой точки зрения в исследованиях обычно выделяют объективную и субъективную стороны продукта творчества, а в субъективном случае обращают внимание на личностную, а не общественную значимость творчества.

Ключевые слова: творческие способности, компетентность, уровни эмоционально-интегративной профессиональной подготовки, познавательная мотивация, периодическая и непрерывная дидактическая подготовка, творческие и систематические, интеллектуальные способности, проблемные подходы, индивидуально-психологический, индивидуальный потенциал человека, международный стандарт, конкретная функциональная система.

INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF CREATIVE ABILITIES OF FUTURE SLSMENTARY SCHOOL TEACHERS

Abstract. In this article, future elementary school teachers will be taught to develop their creative abilities, to learn how to solve problems related to science, to develop their thinking skills, to work with creative problems in heuristic ways, to be able to apply their competences in new situations from the familiar methods of their activities, emotional - aimed at improving the levels of integrative professional training, effective thinking, imagination, cognitive motivation, integrity of intellectual feelings based on diagnostic determination.

In the article, the author mentioned suggestions and recommendations for improving the creative ability of future elementary school teachers during their pedagogical activity based on the gradual harmonization of periodic and continuous didactic training with the form and continuity of the educational content.

In the article, creativity is recognized as a type of activity of great social or socio-historical importance in contemporary literature. In support of this point of view, studies usually distinguish the objective and subjective aspects of the product of creativity, and in the subjective case, attention is paid to the personal, not social, importance of creativity.

Key words: creative abilities, competence, levels of emotional-integrative professional training, cognitive motivation, periodic and continuous didactic training, creative and systematic, intellectual ability, problem approaches, individual-psychological, individual human potential, international standard, concrete functional system;

Kirish. Jahonda ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning, ilg‘or pedagogik texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda, Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan “Incheon declaration”da “Ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish” konsepsiyasi asosida fan va ta’lim yutuqlarini o‘quv materiallari mazmuniga singdirib borish, fanlarni o‘qitish sifatini oshirishga oid tendensiyalarni amaliyotga tatbiq etish, amaliy-tatbiqiy va tabiiy-ilmiy mazmundagi loyixalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Jaxon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida, fanga oid muammolarni yechish usullarini o‘rgatish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy masalalarni evrestik yo‘llar bilan ishlash, faoliyatining tanish usullaridan yangi vaziyatlarda kompetensiyalarini qo‘llay olishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga muammoli yondashuvlar asosida ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modellarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini zarur axborotlar bilan ta’minlash, o‘zlashtirishning maqbul yechimlarini topish va joriy qilishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish ustuvor etib vazifalar belgilangan. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik, psixologik imkoniyatlari yanada kengayadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiyatlarini rivojlantirish masalalari qator olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, J. A. Hamidov, Z. K. Ismailova, B. A. Nazarova, A. R. Xodjaboyev, M. G. Davletshin, E. G‘ozi, B. R. Qodirov, Z. Nishonova, A. Z. Rahimovlar tomonidan tadqiq qilingan. Ijodiy qobiliyat haqidagi nazariy qarashlar N. Leontev, S. L. Rubinshteyn, I. M. Smirnova kabi psixologlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish demakdir.

1) Badiiy, ilmiy, san’atgaoid asar yoki moddiy boylik yaratish.

2) yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning turli jihatlarini G. Spenser tomonidan tomonidan o‘rganilgan.

Bugungi kunda psixologiya, pedagogika va boshqa turli o‘quv fanlarida ijodiy qobiliyat tushunchasini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Ijodiy qobiliyat haqidagi nazariy qarashlar N. Leontev, S. L. Rubinshteyn, I. M. Smirnova, E. G‘oziev, B. Qodirov, M.G.Davletshin, A.Z.Rahimov, Z.T.Nishonova kabi psixologlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Masalan, I. M. Smirnova qobiliyat haqida to‘xtalarkan, shunday deydi: “Maktabning asosiy va bosh masalalaridan biri, ta’lim oluvchilardagi qobiliyatni,

qiziqishlari darajasini aniqlash va ularning ijodiy qobiliyatini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat bo‘lishi kerak”.

Chunki bugungi kunda ijodiy qobiliyatni aniqlashning to‘liq, aniq va yagona tizimi yo‘q. Asosiy muammo shundaki, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish muammosini o‘rganish borasidagi tadqiqotlarda qobiliyat o‘zi nima ekanligi to‘g‘risida hali bir to‘xtamga kelingan emas. Keling, zamonaviy psixologiyada qobiliyat tushunchasi qoidalari umumiy nazariy qarashlar asosida qanday ta’riflanishini ko‘rib chiqaylik.

Qobiliyat nazariyasini ishlab chiqishda psixolog olim S. L. Rubinshteyn katta hissa qo‘shgan. U qobiliyat tushunchasi asosida ijtimoiy-tarixiy rivojlanish bosqichida yuzaga kelgan biror-bir ijtimoiy foydali ishni muvaffaqiyatli bajarishda insondagi “o‘ziga xoslik va sifat” mujassam ekanligini ta’kidlaydi

Qobiliyatlar nazariyasini yaratishda B. M. Teplov ishlab chiqqan qoidalar ham muhim ahamiyatga ega. U qobiliyatlarning uch turini alohida ajratib ko‘rsatadi: “Birinchidan, - deydi u, - qobiliyat deyilganda, bir insonni ikkinchisidan ajratib turadigan individual-psixologik o‘ziga xoslik tushuniladi, barchaga baravar tegishli xususiyatlar to‘g‘risida so‘z ketganda, hech kim qobiliyat haqida gapirmaydi. Ikkinchidan, har qanday umumiy individual xususiyatlar ham qobiliyat sanalavermaydi, aksincha, bitta yoki ko‘p ishni bajarishda muvaffaqiyat qozonishgina qobiliyat sifatida e’tirof etiladi. Uchinchidan, “qobiliyat” tushunchasi ma’lum bir insonda rivojlangan bo‘lib, u yoki bu ma’nodagi malaka hamda bilimga singishmaydi.

B. M. Teplov qobiliyatlarni rivojlantirish to‘g‘risida gapirarkan, agar olib borilayotgan faoliyatga mos tushmasa, qobiliyat yuzaga chiqmaydi, deydi. “Gap shundaki, - deb ta’kidlaydi u, - faoliyat paytida qobiliyat namoyon bo‘lmaydi, balki olib borilayotgan faoliyat ichida yaratiladi”.

E. G‘ozievning fikricha qobiliyat – insonning individual salohiyati, imkoniyatlari tushunilgan. U bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobiliyat uchun tayanch xususiyat-kuzatuvchanlikda, ya’ni insonni fahmlash, ob’ektdan u yoki bu alomatlarni ko‘ra bilish, ajrata olish ko‘nikmasidir.

D. M. Maxmudovaning ilmiy izlanishlarida Oliy ta’lim tizimida talabalarda ijodiy faoliyatni shakllantirishda muammoli masalalardan foydalanishning nazariy va ilmiy jihatlari tadqiq qilingan. Tadqiqotchi o‘z ishlarida fanni muammoli o‘qitish texnologiyalari yordamida o‘qitishni taklif etadi hamda muammoli pedagogik masalalarni o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining vosita sifatida ko‘rsatib bergan.

Yuqorida fikr va qarashlaridan misol keltirilgan mualliflar ijodiy qobiliyatlar muammosini o‘rganishga shaxs-faoliyat nuqtai nazaridan kelib yondashuvchi tadqiqotchilar sirasiga kiradi.

Tahlil va natijalar. Keyingi paytlarda psixologiyada ijodiy qobiliyatga psixologik funksional tizimning muhim xususiyati sifatida qaralmoqda va

mahsuldorlik darajasining namoyon bo‘lishiga qarab, funksional-genetik jihatdan yondoshish yuzaga kelmoqda. Masalan, V. D. Shadrikov qobiliyatlarni “alohida olingan va sifat jihatidan o‘ziga xos bo‘lgan individual xususiyatga ega ayrim ruhiy funksiyalar tizimi”, deb belgilaydi. Uning fikricha, qobiliyatlar “insonning evolyusion rivojlanish bosqichlarida aniq, ya’ni konkret funksional tizimlar rivojlangan, masalan, ob’ektiv borliqni aks ettiradigan (qabul qiladigan) yoki tashqi ta’sirni o‘zida ifoda etadigan (xotira) jamlamadir”.

Eslatib o‘tmoq lozimki, ijodiy qobiliyat tushunchasi bilan bog‘liq yuqorida ko‘rib chiqilgan ikkita - shaxsiy-faoliyatli va funksional-genetik yondashuv psixologlarning fikricha, bir-biriga qarama-qarshilikda emas, aksincha, bir-birini to‘ldirib turadi.

Xulosa. Yuqorida aytilganlardan xulosa qilib aytish mumkinki, ijodiy qobiliyatlar turli faoliyat turlarining samaradorligini belgilaydi. Maxsus qobiliyatlarni tadqiq etish faoliyatga qo‘yiladigan talablarni tahlil qilish jarayonida qabul qilish, tasavvurlar, fikrlashlar, u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi odamlar harakati kabi qismlarga ajratib olinadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid bilim va malakalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini rivojlantirish;

2. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini bosqichma-bosqich mustaqil innovatsion-ijodiy ishlarga va muammoli vaziyatli topshiriqlarning yechimini topishga yo‘naltirish;

3. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanish kompetensiyasini takomillashtirishga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z. T. Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari. Dis. psixol. fan. dok. – Toshkent, 2005. – B. 312.

2. Сластенин В. А., Исаев И. Ф., Мище А. И., Шиянов Е. Н. Педагогика: Учеб.пособие для студ.пед.учеб.завед. – Москва: Школа-Пресс, 2000. – С. 5-12.

3. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. – Москва: Просвещение, 2006.

4. Sodikov U. J. O‘quvchilarga individual yondashuv usullari. “Pedagogika va umumiy psixologiya” kafedrasi “Psixik taraqqiyot va ta’lim muammolari” mavzusidagi ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2015. – B. 67-69.

5. Тошпулатова М. И. Методика совершенствования профессионалной подготовки будущих учителей началных классов. ИССН 2308-4804. Ссиенсе анд ворлд. № 10 (14). 2014.